

XOTIN-QIZLARNING MOLIVAVIY SAVODLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Bababekova Gulchexra Baxtiyorovna

(ORCID number 0000-0002-1723-7309)

katta o'qituvchi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko'chasi 1-uy, Tashkent 100149, O'zbekiston (gulchehrabababekova2023@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11298521>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda xotin qizlarning moliyaviy savodxonligining iqtisodiy mazmuni, uning rivojlantirish masalalari to'g'risida so'z yuritilib, uning bugungi kunda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda xotin qizlarning moliyaviy savodxonligini oshirish asosida o'quvchi yoshlarimizni yurtimizda iqtisodiyot, byudjet, moliya, bank va soliq tizimlarida ro'y berayotganiqtisodiy islohotlar bilan muntazam ravishda xabardor qilish asosida ularda nazariy va amaliy malaka hamda ko'nikmalarni shakllantirish orqali ushbu jarayonlarning tutgan o'rni va ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy siyosat, moliya, soliq, byudjet, bank, iqtisodiy ta'lim, moliyaviy farovonlik, inson farovonligi va hayot, qadriyatlar sifati, bilim, malaka ko'nikma..

Аннотация: Статья посвящена к экономической содержанию финансовой грамотности женщин и девушек в нашей стране, вопросах ее развития, а также на основе повышения финансовой грамотности женщин и девушек в обеспечении социально-экономического развития страны сегодня. мы будем знакомить молодёжи с экономикой, бюджетом, финансами в нашей стране, роль и значение этих процессов основаны на формировании теоретических и практических навыков и навыков на основе регулярного осознания экономических реформ, происходящих в стране. банковская и налоговая системы.

Ключевые слова: финансовая грамотность, экономическая политика, финансы, налоги, бюджет, банковское дело, экономическое образование, финансовое благополучие, благополучие и жизнь человека, качество ценностей, знания, компетентность, навыки.

Annotation: The article is devoted to the economic content of the financial literacy of women and girls in our country, issues of its development, as well as on the basis of increasing the financial literacy of women and girls in ensuring the socio-economic development of the country today. we will introduce young people to the economy, budget, finance in our country, the role and significance of these processes are based on the formation of theoretical and practical skills and abilities based on regular awareness of the economic reforms taking place in the country. banking and tax systems.

Keywords: financial literacy, economic policy, finance, taxes, budget, banking, economic education, financial well-being, human well-being and life, quality of values, knowledge, competence, skills.

Mamlakatimizning barqaror va mutanosib rivojlanishi, aholi turmush darajasi va farovonligining oshishi ko'p jihatdan fuqarolarning iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ongli ravishda munosabatda bo'lishi, iqtisodiy tafakkur, malaka va ko'nikmalarning rivojlanishiga chambarchas bog'liqdir. Chunki, fuqarolarimizning ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarning sifat bosqichiga olib chiqish jarayonlarida faollik va moliyaviy savodxonlikka ega bo'lsa, ularning kelgusi hayotini yanada oshirish yo'lida qabul qilayotgan me'yoriy hujjatlarni chuqur anglashi

va to'g'ri qarorlarni qabul qilishiga asos bo'ladi. Shu jumladan, ta'lim tizimida sidqidildan faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarimizning moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Chunki o'qituvchilarimizning moliyaviy savodxonligini yanada oshirish asosida bo'lajak yoshlarimizning kelajakda etuk mutaxassis bo'lishlari, o'z kasblarini tanlashlariga asos bo'lishi muqarradir. Ushbu holat esa o'z o'zidan moliyaviy savodxonlikning bir tomondan o'qituvchilarimizning moliyaviy savodxonligini yanada oshirishga ikkinchi tomondan o'quvchilarimizning moliya, byudjet, bank, iqtisodiyot sohalaridagi bilmalarini oshishi va eng asosiysi o'quvchilarimizda ushbu sohalarga bo'lgan qiziqishlari olib kelishi muqarradir. Shuningdek, ushbu jarayonlar kelguda mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitining yanada rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkon yaratadi.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqida "...tadbirkorlarimizga biznesni boshqarishdagi o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishi, faoliyatiga innovatsiya va ilg'or texnologiyalarni keng joriy etishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berishga tayyormiz.

Oliygozlarda o'qitilayotgan tadbirkorlik va biznesni boshqarish bo'yicha ta'lim yo'nalishlari, o'quv dasturlari va metodologiyasini, amaliyot bilan uyg'un bo'lgan zamonaviy yondashuvlar asosida chuqur qayta ko'rish talab etiladi." [1;] degan fikrlari bizning nazarimizda ta'lim dargohlarimizda ta'lim berayotgan o'qituvchilarimizning moliyaviy savodxonligini oshirish, o'quvchilarimizda tadbirkorlik faoliyatini keng targ'ib etish, har bir o'qituvchining o'z kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda o'quvchilarga moliyaviy savodxonlik mahoratini singdirish asosida yoshlarimizda kelgusida biznesni boshqarishda moliyaviy, iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini oshirishlari, zamonaviy innovatsiya va ilg'or texnologiyalardan keng foydalanishlari lozimligini targ'ib qilishlari lozim. Shuningdek, Muhtaram Prezidentimizning fikrlaridan kelib chiqqan holda, nafaqat Oliy o'quv musaasalarida balki boshlang'ich ta'lim maktablaridanoq, o'qituvchilar tomonidan moliyaviy, iqtisodiy va umuman olganda moliyaviy savodxonlikni oshirish masalalariga alohida e'tiborimiz qaratish lozimligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, o'qituvchilarimizda moliyaviy savodxonlikni oshirishda ularning pedagogik mahoratga ega bo'lish yo'lida harakat qilayotgan, izlanayotgan har qanday o'qituvchi, shubhasiz, egallashi lozim bo'lgan ilmiy nazariy ma'lumotlarni qo'lga kiritish uchun o'qituvchilik pozitsiyasiga ega bo'lishi bilan birgalikda ularda moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan progressiv, shaxsiy jihatdan optimistik bo'lib, zamonaviy pedagogika, psixologiya, metodikaning ilg'or g'oyalarini o'zida aks ettirishi lozim. Bularning barchasi esa iqtisodiyotimizning demokratik bozor tamoyillari asosida qayta tarkib topishiga zamin bo'lmoqda. Biroq, shu o'rinda ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotda samarali va zamonaviy bozor munosabatlari asosida uning tamoyillarini to'liq tarkib topishi xotin qizlarning iqtisodiy va moliyaviy bilim va malakalari, ko'nikmalari darajasiga, ularning iqtisodiy madaniyatiga ham bog'liq.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning metodologiyasi tizimli yondoshuv, ilmiy tadqiqot jarayonida kuzatish solishtirish va hamda tendentsiyalarni tahlil qilish usullari qo'llanilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy va iqtisodiy savodxonlikning etarli darajada shakllanishi hamda samarali amal qilishi esa, har bir shaxsning moliyaviy savodxonlik darajasini taqozo etadi. Shunga ko'ra, hozirda xorijiy mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizning mamlakatimizda o'qituvchilarimizning moliyaviy savodxonligini ta'minlash va oshirish muhim bo'lib, bu boradagi tizimli chora-tadbirlarni belgilash avvalo mazkur masalaning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rnini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Ma'lumki, xozirgi kunda moliyaviy savodxonlikni oshirish va uni yanada takomillashtirish masalalariga etakchi olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan keng e'tibor qaratili, u keng qamrovda tahlil etilmoqda. Albatta bu borada ularning qaysi rakursdan qarashlariga qarab ushbu jarayonning dolzarbligi yanada ortmoqda. Avvalo, mazkur tushunchaning biz va o'quvchilarimiz tomonidan keng foydalaniladigan rus tilidagi (*vikipendiya*)da ta'rifi to'xtalib o'tiladigan bo'lsak ijtimoiy lug'at va talqinlarda unga quyidagicha yondoshilgan:

“Moliyaviy savodxonlik – bu inson moliyaviy xulq-atvori sohasidagi uning farovonligini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga olib keluvchi bilim, ko'nikma va qadriyatlar majmui; hayotdagi voqealar va iqtisodiy shart-sharoitlardagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda qisqa muddatli qarorlar va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish orqali shaxsiy moliyani boshqarishdagi qobiliyat va qat'iylilikni, asosiy moliyaviy tushunchalarni anglab etishni ifodalovchi daraja”[2].

A.Sudakovaning ta'kidlashicha “Hozirgi vaqtda moliyaviy savodxonlik tushunchasi moliyaviy ma'lumot, kompetentlik, xabardorlik va boshqa atamalar bilan uzviy bog'liq. Moliyaviy savodxonlikning ko'rsatib o'tilgan tushunchalar bilan asosiy farqi unga tegishli bo'lgan asosiy elementlarning tatbiq etilish kengligi va bayon etilishining chuqurligida namoyon bo'ladi. ...Shaxsning moliyaviy savodxonligi tushunchasini o'z farovonligini oshirish uchun moliyaviy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi kompetentsiyalar yig'indisi sifatida talqin etish mumkin. Ayni vaqtda u ustun ravishda moliyaviy va vaqt bo'yicha yo'qotishlarni eng kam darajaga tushirishga imkon yaratadi” [3;]. Mazkur tushunchalar O.Kuzina tomonidan nisbatan batafsil va etarli darajada tushunarli holda bayon etilgan [4;]. Shuningdek, S.Xaston tomonidan moliyaviy savodxonlikka tegishli 52 ta ma'lumotlar bazasida to'plangan 71 ta tahlil asosida ayrim dastlabki ta'riflar belgilab berilgan [5;].

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) hujjatlarida moliyaviy savodxonlikka quyidagicha rasmiy ta'rif berilgan: “Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko'nikma, qadriyatlar (hayotiy yo'nalishlar) va xulq-atvor kabi elementlarning majmui” [6;].

E.Gartsuevaning ta'kidlashicha, moliyaviy savodxonlik “insonning ijtimoiy takror ishlab chiqarishda investor sifatida ongli ishtirok eta olish qobiliyati bo'lib, u moliyaviy dastaklarni tanlashga oqilona va mas'uliyatli yondashgan holatda daromad hosil qilishi yoki hech bo'lmaganda bilim egasining moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlashi lozim” [7;].

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy savodxonlik – o'z mablag'ini boshqarish va uni ko'paytirish mahorati. U moliyaviy bozorning o'ziga xosliklarini bilish, bozor ishtirokchilari tomonidan taklif

etilayotgan mahsulot va xizmatlardan xabardor bo'lish hamda shu asosda qabul qilingan qaror mas'uliyatini zimmasiga olish degani hamdir [8;].

T.S.Malikov, X.A.Qobulovlar "Moliyaviy savodxonlikni oshirishga "yashil chiroq" – davr talabi" nomli maqolalarida, " Zamonaviy rivojlangan va tez o'zgaruvchan dunyoda moliyaviy madaniyat masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy savodxonlik insonga vaziyatga, boshqa insonlarning xohishiga, tizimga bog'liq bo'lmaslikka imkon beradi. O'qimishli shaxs hayotda o'zi uchun moddiy asos yaratadigan, eng jozibali yo'llarni tanlay oladi" deb o'z fikrlarini bildirganlar. [9; 18-b]

Albatta moliyaviy savodxonlikka berilgan xilma-xil ta'riflar hamda uning turli manbalarda bayon etilgan asosiy jihatlariga tizimli yondoshgan holda, mazkur tushunchaning iqtisodiy mazmuni va uning iqtisodiyotdagi ahamiyatini yanada chuqurroq ochib beruvchi tahlil va tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot jarayonida mamlakatimizda moliyaviy savodxonlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotganligi va bir qator tashkilotlar tomonidan ta'lim muassasalarimizda bu borada uchrashuv, seminar, tadbirlar o'tkazilayotganligining guvohi blmoqdamiz. Jumladan, birgina O'zbekiston respublikasi Markaziy bank tashabbusi bilan Global Money Week tadbirlarini o'tkazish O'zbekistonda ham an'anaga aylandi

O'zbekistonda Markaziy bank tashabbusi bilan nishonlanishi an'anaga aylangan "Umumjahon pul haftaligi 2022" doirasida o'qituvchilar, maktab o'quvchilari, volontyor talabalar va yoshlar uchun turli tanlov, mahorat darslari, onlayn test kabi ta'lim tadbirlari o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2020 yildan boshlab "Umumjahon pul haftaligi" (Global Money Week) ta'lim kampaniyasi mamlakat bo'ylab bolalar va yoshlar orasida keng nishonlanib, bu yilgi ta'lim tadbirlari "O'z kelajagingizni quring, pullaringiz bilan to'g'ri munosabatda bo'ling" shiori ostida o'tkazilmoqda.

Xususan, maktablarda aprel oyi davomida "Moliyaviy savodxonlik oyligi" doirasida o'qituvchilar orasida "Moliyaviy savodxonlik bo'yicha eng yaxshi darslar" ko'rik-tanlovi o'tkaziladi. Tanlov (<https://t.me/finlituzb/1763>) g'oliblari (o'qituvchilar) qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Shuningdek, maktablarning 5-11-sinf o'quvchilari uchun moliyaviy savodxonlik va moliyaviy matematika bo'yicha onlayn-test o'tkazilmoqda. Ushbu tadbir ma'lumotlarini Finlit.uz (<https://t.me/finlituzb>) orqali batafsil bilib oling.

Barcha hududlarning "Yoshlar markazi"da yoshlar uchun "Finlit.uz bilan moliyaviy barqarorlik sari" (<https://t.me/finlituzb/1797>) mahorat darslari o'tkazilmoqda. Tadbir ishtirokchilari jamg'arish ko'nikmalari, mas'uliyatli qarz olish tamoyillari, raqamli moliyaviy savodxonlik, sug'urta xizmatlari va tadbirkorlik faoliyati asoslari to'g'risida maslahat va yo'riqnomalarni soha ekspertlaridan olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Markaziy bank tashabbusi bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Plexanova nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali, Moliya instituti va hududlardagi davlat universitetlari bilan hamkorlikda talabalar o'rtasida volontyorlik loyihasi yo'lga qo'yildi. Loyiha doirasida 300 nafar volontyor talaba moliyaviy savodxonlik bo'yicha trenerlikka tayyorlanib, mamlakatimizning noiqtisodiy ta'lim yo'nalishidagi 84 ta oliy ta'lim muassasasida treninglar tashkil etmoqda.

Tadbirlar tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, to'lov tashkilotlari va Yoshlar ishlari agentligi hamda bir qator manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda o'tkazilmoqda. [10;]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz tomonimizdan moliviy savodxonlikni oshirish bo'yicha olimlarimiz va etakchi mutaxassislarimiz tomonidan bildirilgan fikrlari va olib borilayotgan tadbirlarni keltirishimiz mumkin. Ammo yuqorida qayd etilgan holatlar bilan birgalikda o'qituvchilarimizning moliya, bank va soliq sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida yuz berayotgan ijobiy islohotlar bo'yicha yanada ko'proq bilim va ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari talab etiladi. Shu bilan birgalik shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, moliyaviy savodxonlik u o'z ichiga barcha moliyaviy, iqtisodiy jarayonlarni o'ziga qamrab oluvchi moliyaviy, iqtisodiy munosabatlarning yig'indisidir deyishimiz mumkin.

Bugungi kunda jamiyatda yangi zamonaviy moliviy, iqtisodiy muhit shakllanib bormoqda. Shunga ko'ra, bozor munosabatlari talablariga muvofiq tarzda hayotiy jarayonning turi sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsning moliyaviy savodxonlik darajasiga qo'yiladigan talablar ham oshib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan bizning nazarimizda o'qituvchilarimiz tomonidan o'z malaka va ko'nikmalaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonida moliyaviy, iqtisodiy savodxonlikning uzviyligini hamda samaradorligini oshirishda quyidagi yo'nalishlarda ishlarni olib borishimiz maqsadga muvofiqdir.

1. Turli o'quv predmetlari tarkibida berilishi mo'ljallangan moliviy iqtisodiy ta'lim mazmuni va pedagogik ta'lim shakli va mazmunini aniqlash asosida ularning strategik yo'nalishini ta'minlash.

2. Moliyaviy savodxonlik doirasida iqtisodiy bilim va ko'nikmalarning yanada xukumatimiz tomonidan ommaviy axborot vositalarida qayd etilayotgan me'yoriy xujjatlarni muntazam ravishda o'quvchilar e'tiboriga qaratish ta'minlash.

3. O'quvchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

4. Taqdim etilayotgan ilmiy, iqtisodiy, ijtimoiy ma'lumotlar o'quvchilarning umumiy iqtisodiy savodxonligi va madaniyatini shakllantirish imkonini berishiga erishish.

5. Iqtisodiy nazariya bilan bir qatorda amaliy xarakterga ega bo'lgan vazifalarni (iqtisodiy vaziyatlar, iqtisodga oid test va shu kabilar) topshirishni ta'minlash.

6. Iqtisodiy materiallarning taqdim etilishi mo'ljallangan o'quv fani mazmuniga mos kelishini ta'minlash.

7. Ta'lim muassasalarida tumanlararo, viloyatlararo moliyaviy savodxonlikning oshirish masalalari bo'yicha seminar, uchrashuvlar, tanlovlarni tashkil etish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqtisodiy ta'limda uzviylikni tatbiq etish va ta'lim berish metodikasi ilmiy bilimlar taxlili va sintez muammosini pedagoglar metodologik qarashlariga fanlar differentsiatsiyasining konkret ifodalanishi deb hisoblashimiz mumkin. Bu muammoning nazariy va amaliy echimi jamiyat rivojlanishi iqtisodiy fanlar va o'quv yurtining ijtimoiy buyurtmasiga mos ravishda o'zgarib keladi.

Адабиётлар руйхати

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi

<https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-mamlakatimiz-tadbirkorlari-bilan-ochiq-muloqot-shaklidagi-uchrashuvda-sozlagan-nutqi>
Finansovaya gramotnost. - <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

2.Судакова А.Е. Финансовая грамотность: теоретическое осмысление и практическое исследование // Финансы и кредит, 2017, т. 23, вып. 26, стр. 1563–1582.

3.Кузина О. Финансовая грамотность и финансовая компетентность: определение, методики измерения и результаты анализа в России // Вопросы экономики. 2015. № 8. С. 129-148.

4.Huston S.J. Measuring Financial Literacy. The Journal of Consumer Affairs, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 296–316.

5.Measuring Financial Literacy: Core Questionnaire in Measuring Financial Literacy: Questionnaire and Guidance Notes for conducting an Internationally Comparable Survey of Financial literacy, Paris, OECD, 2011, 31 p.

6.Гарцуева Е.В. Финансовая грамотность индивида – условие его успехов в рыночной экономике // Вестник Томского государственного университета. Экономика. 2017. № 38. С. 91-105.

7.Ulug'murodov D. Moliyaviy savodxonlik nima? - <http://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/10461-moliyavij-savodkhonlik-nima>.

8.T.S.Malikov, X.A.Qobulov. Moliyaviy savodxonlikni oshirishga “yashil chiroq” – davr talabi Jurnal Moliya 3/2020

9.Markaziy bank tashabbusi bilan Global Money Week O'zbekistonda ham an'anaga aylandi <https://kun.uz/news/2022/04/11/markaziy-bank-tashabbusi-bilan-global-money-week-ozbekistonda-ham-ananaga-aylandi>